O‘QITUVCHIGA QO‘YILADIGAN TALABLAR

Kenjayev Sharof Shermuxamatovich,

Qaxxarov Akmal Abdug‘ufurovich,

Abduraxmonov Abror Akromovich

Shahrisabz “Temurbeklar maktabi” harbiy-akademik litseyi matematika fani o‘qituvchilari

Annotatsiya: Uzluksiz ta’lim tizimi faoliyati samaradorligini oshirishda o‘qituvchilar alohida o‘rin tutadi. Ularning kasbiy mahorati, dunyoqarashi, ma’naviy-axloqiy sifatlari barkamol barkamol avlodni tarbiyalab voyaga yetkazishda muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi. Shaxsni tarbiyalash nihoyatda murakkab faoliyat bo‘lib, juda qadimdan ushbu faoliyatga jamiyatning yetuk kishilari jalb etilgandir. Mazkur holat yosh avlod tarbiyasi, uni tashkil etish mazmuni nafaqat shaxs kamoloti, balki jamiyat taraqqiyotini ham belgilashda muhim ahamiyatga ega ekanligini anglatadi.

Kalit so‘zlar: O‘qituvchi, o‘qituvchi faoliyati, pedagogik mahorat, pedagogik qobiliyat, pedagogik texnika, muloqot, pedagogik muloqot, texnologiya, pedagogik texnologiya.

Kishilik jamiyati taqqiyotining o‘ziga xos bosqichi bo‘lgan bozor iqtisodiyoti har bir mutaxassisdan puxta bilim, yuksak kasbiy tayyorgarlikka ega bo‘lishni talab etmoqda. Zero, kuchli raqobatga asoslangan ijtimoiy tuzilmaning bu shaklida mutaxassislarning kasbiy salohiyati va mahorati ular tomonidan tashkil etiladigan faoliyat samardorligini ta’minlovchi muhim omil sanaladi. Shu sababli mustaqillik yillarida O‘zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan kadrlar tayyorlashga doir milliy siyosati asosini har tomonlama shakllangan, o‘zining puxta kasbiy bilim, malak va mahoratga egaligini to‘la namoyon eta oladigan shaxslarni kamol toptirish g‘oyasi tashkil etadi.

O‘qituvchilar barcha holatlatda ta’lim oluvchilar uchun ideal na’muna bo‘ladi. Shu sababli respublika ta’lim tizimiga oid hujjatlarda ham o‘qituvchi va uning shaxsi masalasiga e’tibor qaratiladi. Respublika “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonunida pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanadigan shaxslar, ular ega bo‘lgan huquq to‘g‘risida so‘z yuritiladi. Unda ko‘rsatilishicha, “tegishli ma’lumoti, kasb tayyorgarligi bor va yuksak axloqiy fazilatlarga ega bo‘lgan shaxslar”ning pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanish huquqiga egaliklari ko‘rsatib o‘tiladi. Yuqorida bildirilgan fikrga tayangan holda “o‘qituvchi” tushunchasini shunday ta’riflash mumkin:

O‘qituvchi (pedagog) – pedagogik, psixologik va tegishli mutaxassislik bo‘yicha maxsus ma’lumot, kasbiy tayyorgarlik, yuksak axloqiy fazilatlarga aga bo‘lib, ta’lim muassasalarida faoliyat ko‘rsatuvchi shaxs.

Zamonaviy sharoitda ham barcha davrlarda bo‘lgani kabi pedagogik faoliyat bilan shug‘illanadigan shaxslarning muayyan talablarga javob bera olishlari muhimdir. Xo‘sh, zamonaviy o‘qituvchi qanday bo‘lishi kerak? U o‘zida qanday sifatlarni aks ettira olishi zarur?

Pedagogik, psixologik manbaalarda bildirilgan fikrlarga tayangan holda aytish mumkinki, zamonaviy o‘qituvchi qiyofasida quyidagi fazilatlarning namoyon bo‘lishi kerak:

1. O‘qituvchi jamiyat ijtimoiy hayotida ro‘y berayotgan o‘zgarishlar, olib borilayotgan ijtimoiy islohotlar mohiyatini chuqur anglab yetishi hamda bu borada o‘quvchilarga to‘g‘ri, asosli ma’lumotlarni bera olishi lozim.

2. Zamonaviy o‘qituvchining ilm-fan, texnika, texnologiya yangiliklari va yutuqlaridan xabardor bo‘lishi xabardor bo‘lishi talab etiladi.

3. O‘qituvhi o‘z mutaxassisligi bo‘yicha bo‘yicha huqur, puxta bilimga ega bo‘lishi, o‘z ustida tinimsiz izlanishi lozim.

4. O‘qituvchi pedagogika va psixologiya fanlari asoslarini puxta bilishi, ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchilarning yosh va psixologik xususiyatlarini inobatga olgan holda faoliyat tashkil etishi kerak.

5. O‘qituvchi ta’lim-tarbiya jarayonida eng samarali shakl, metod va vositalardan unumli foydalana olish imkoniyatiga ega bo‘lmog‘i lozim.

6. O‘qituvchi ijodkor, tashabbuskor va tashkilotchilik qobiliyatiga ega bo‘lishi shart.

7. O‘qituvchi yuksak darajadagi pedagogik mahorat, chunonchi, kommunikativlik layoqati, pedagogik texnika (nutq, yuz, qo‘l-oyoq va gavda harakatlari, mimika, pantomimika, jest) qoidalarini chuqur o‘zlashtirib olishga erishishi lozim.

8. O‘qituvchi nutq ma’daniyatiga ega bo‘lishi zarur, uning nutqi quyidagi xususiyatlarni o‘zida aks ettira olishi kerak:

a) nutqining to‘g‘riligi;

b) nutqining aniqliligi;

d) nutqining ifodaviyligi;

e) nutqining sofligi (uning turli sheva so‘zlardan holi bo‘lib, faqat adabiy tilda ifoda etilishi); jargon (muayyan kasb yoki soha mutaxassisliklariga xos so‘zlar); varvarizm (muayyan millat tilida bayon etilayotgan nutqida o‘zga millatlarga xos so‘zlarning noo‘rin qo‘llanilishi); vulgarizm (haqorat qilish, so‘kishda qo‘lsmiy so‘zlardan foydalanish) so‘zlardan holi bo‘lishi, o‘qituvchining nutqi sodda, ravon va tushunarli bo‘lishi kerak;

f) nutqning ravonligi;


g) nutqning boyligi (hikmatli so‘zlar, ibora va maqollar, matallar hamda ko‘chirma gaplardan o‘rinli va samarali foydalana olish).

9. O‘qituvchi kiyinish ma’daniyatiga ega bo‘lishi (sodda, ozoda, bejirim kiyinishi), ta’lim-tarbiya jarayonida o‘quvchining diqqatini tez jalb etuvchi turli bezaklar (oltin, kumush taqinchoqlar)dan foydalanmasligi, fasl, yosh, gavda tuzilishi, yuz qiyofasi, hatto soch rangi turmagiga muvofiq ravishda kiyinishni o‘zlashtirishga erishishi.

10. O‘qituvchi shaxsiy hayotda pok, atrofdagilarga o‘rnak bo‘la olishi lozim.

Yuqorida bildirilgan fikrlarga tayangan holda o‘qituvchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan sifatlarni quyidagicha turkumlashtirish mumkin:

O‘qituchi shaxsida aks etishi zarur bo‘lgan sifatlar



O‘qituvchi **mutaxassis** sifatida: pedagogika nazariyasi va psixologiya asoslarini bilishi; pedagogik mahoratga ega bo‘lishi; ta’lim va tarbiya texnologiyalarini o‘zalashtira olishi; mehnatni oqilona, samarali tashkil etishning uddasidan chiqishi; sabr-toqat, ishonch hissiga ega, topqir, hozirjavob, chaqqon, oliyjanob, saxovatli, hissiy barqaror bo‘lishi; o‘zini tuta olishi; bolalarni tushuna olishi, tinglay bilishi; ular bilan ishlashni bilishi; tinq va ishonchli nutqqa ega, talabchan, xushmuomila, o‘zini dadil tutishi, haqiqatgo‘y va kirishimli bo‘lishi; **xodim** sifatida: o‘z oldiga maqsad quya olish va unga erishish; vaqtini to‘g‘ri taqsimlay bilish; izchil va rejali ravishda kasbiy malakasini oshirib borishi; ishlab chiqarish mexnatini to‘g‘ri rejalashtirish va tashkillashtirishi; ijodiy faoliyatni tashkil etish ko‘nikmasiga ega bo‘lishi, bilimli, kelajakga ishonch bilan qaraydigan va har narsadan shubhalanmaydigan; **fuqaro** sifatida esa: yuksak ma’naviy-axloqiy sifatlarni o‘zlashtirish; jamoat ishlarida faol ishtirok etsihi; faol hayotiy pozitsiyaga ega bo‘lishi; insonparvar, ma’naviyatli, e’tiqodli, kirishimli, ochiqko‘ngilli, o‘z faoliyatini tanqidiy baholay olishi zarur.

Xulosa

O‘qituvchi pedagogik muloqot jarayonining faol ishtirokchisi sifatida o‘zida bir qator sifatlarning tarkib topishiga erishishi zarur. Chunonchi, u eng avvalo, mulohazali, bosiq, vaziyatni to‘g‘ri baholay oladigan, mavjud ziddiyatlarni bartaraf etishning uddasidan chiqa olishi zarur. O‘quvchi, ota-onalar hamda hamkasblari bilan muloqot jarayonida fikrini aniq va to‘la bayon etilishiga ahamiyat qaratishi maqsadga muvofiq. Ular bilan munosabat jarayonida so‘zni salbiy holatlar haqidagi dalillarni keltirishdan emas, aksincha, o‘quvchi (yoki hamkasbi, ota-onalar)ning muvaffaqiyatini e’tirof etishi, ularning yanada boyishiga ishonch bildirishi u bilan tillasha olishiga imkon beradi. Muloqat jarayonida o‘qituvchining so‘zlaridan suhbatdoshiga nisbatan xayrixohlik, samimiylik, do‘stona munosabat sezilib turishi, shuningdek, imkon qadar ko‘tarinki kayfiyatda bo‘lishi zarur.

O‘qituvchi shaxsining mazkur talablarga muvofiq keluvchi qiyofasi uning o‘quvchilar, hamkasblar hamda ota-onalar o‘rtasida obro‘-e’tibor qozonishini ta’minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risida”gi Qonuni // Toshkent: 1997 yil.
2. Fozilov J., Sultonov R., Saidov H. O‘quvchi ma’naviyatini shakllantirish // Toshkent: 2000. – 8-9-betlar.
3. Xoliqov A. Pedagogik mahorat. Toshkent 2010 yil.
4. Inoyatov U.I., Muslimov N.A., Ro‘ziyeva D.I., Usmonboyeva M.H. Pedagogika. Toshkent: 2013 yil.